

## **ABU RAYXON BERUNIYNING BORLIQ HAQIDAGI QARASHLARI.**

*DTPI Pedagogika fakulteti maktabgacha  
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi  
Mengziyotova Gavhar Jo'rabek qizi.  
Mengboyeva Iroda Jumanazar qizi.*

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada Abu Rayxon Beruniyning borliq haqidagi qarashlari va falsafiy psixologik qarashlari shuningdek ta'limiy – axloqiy qarashlari batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, ilimshunoslik, ma'rifat, axloq, ilim, tabiiy – ijtimoiy.

### **Kirish.**

*Kelajagimiz yoshlari bilim olishi uchun sarflangan har qanday investitsiyalar ortig'i  
bilan qaytishiga shubxa yo'q.  
SH.M.Mirziyoyev.*

*Abu Rayhon Beruniy-953-1050 yilda o'zining qator falsafiy asarlarida psixologik va pedagogik qarashlarini bayon qiladi. Bular inson shaxsining shakllanishi, ahloqiy kamoloti, aql-idroki, tafakkuri haqida fikrlaridir. Beruniyning «qadimgi avlodlar obidalari» asarida ba'zi odamlar shaxsining shakllanishida ularning xulq — atvorida mavjud bo'lgan ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarning shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida to'xtalib o'tadi. Bu illatlarga qarama-qarshi oqil odamlar haqida o'z fikrini bayon qiladi. Beruniyning fikricha oqil odamlarning taraqqiyoti va uning ruhiyatining rivojlanishi hech bir to'siqlarsiz ijobiy rivojlanishga ega bo'ladi deb tushuniladi. Beruniy psixologiya sohasida aniq bir asar yozmagan bo'lsa ham, Farobiy ta'limoti ta'sirida inson shaxsining kamoloti, uning aql-idroki, ruhiy taraqqiyoti haqidagi o'zining psixologik va pedagogik qarashlarini hamma asarlarda to'liq bayon qiladi. Masalan: «Mineralogiya», «Hindiston», hislar bilan seziladigan va aql bilan bilinadigan bir qator kitobning tarjimai-degan kitob va risolalarida o'zining ruh haqidagi qarashlari, ruhiyatning ba'zi muhim masalalarini bilish va tafakkur jarayonlari haqida juda ko'p, g'oyat qimmatli fikr-mulohazalar mavjud. Beruniy olamni ob'ektiv reallik, inson irodasidan tashqarida mustaqil ravishda mavjud bo'lgan borliq sifatida qaraydi. Beruniy kishi ongi. Borliq turli konsepsiyalarda turlicha talqin etiladi. Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zardushtiylik ta'limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alanganlab turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va*

harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi. Qadimgi Yunon faylasufi Suqrot borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkina bor bo'ladi, insonning bilimi qancha keng bo'lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi. Qadimgi dunyoning atomist olimi Demokrit borliq atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo'lmagan narsa yo'qlidir. Islom ta'limotida esa borliq bu ilohiy voqelikdir. YA'ni u Olloh yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta'limotlari bo'lgan. Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta'limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy fikricha, ilk borliq azaliy Ollohnig o'zidir. [Beruniy fikricha](#), borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir. Tafakkuri va ruhiyatini moddiy jismdan keltirib chiqargan holda tasavvur etadi. Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy (4-sentyabr, 973-yil, [Kat](#) (hozirgi Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani), [Xorazm](#), – 13-dekabr, 1048-yil, [G'azna](#)) — [Islom oltin davrining](#) zabardast [Xorazmlik](#) qomusiy allomalaridan biri. G'arb tillarida uning ismi Aliboron deb ham atalgan. Al-Beruniy nomi [forscha](#) „birun“ („chet“ degan ma'noni anglatadi) so'zidan olingan bo'lib, u [Afrig'iy Xorazmshohlar](#) poytaxti [Kat](#) shahrining chekka tumanida tug'ilgan<sup>[2][3]</sup>. Beruniy o'z hovlisida turli gullarni parvarishlashni yoqtirgani uchun unga "Rayhon" laqabini ham berishadi. Al-Beruniy hayotining dastlabki 25 yilini [Xorazmda](#) o'tkazdi, u yerda [islom](#), [fiqh](#), [ilohiyot](#), grammatika, [riyoziyot](#), [falakiyot](#), [tibbiyot](#) va [falsafa](#), [fizika](#) va boshqa ilmlar bilan ham shug'ullandi. Beruniy ona tili bo'lgan [xorazmiy tilidan](#) tashqari [fors](#), [arab yunon](#), [ibroniy](#) va [suryoniy](#) tillarini bilgan va 50 yoshida [sanskrit tilini](#) o'rgandi. Iroqiylarning oxirgi vakili [Abu Nasr Mansur ibn Iroq](#) Beruniyning ustoz edi.

Al-Beruniy [falakiyot](#), [riyoziyot](#), [geodeziya](#), [jug'rofiya](#), [mineralogiya](#) va tabiiy fanlarni yaxshi bilgan. Shuningdek, tarixchi, xronolog va tilshunos sifatida ham ajralib turardi. U o'z davrining deyarli barcha fanlarini mukammal o'rgangani sabab qomusiy alloma deb nomlanadi va ko'plab ilm sohalarida tinimsiz izlanishlari uchun mo'l-ko'l mukofotlangan<sup>[4]</sup>. Shoh xonadoni va jamiyatdagi boshqa qudratli unsurlar Al-Beruniyning tadqiqotlarini moliyalashtiradi. O'ziga xos ta'sirga ega bo'lgan Al-Beruniyning o'zi ham falsafani o'rganish davomida, boshqa xalqlarning olimlaridan, xususan, yunon olimlaridan ham ilhom olgan. Beruniy Iroqiylar xonadoniga mansub edi va o'sha paytda Xorazmdagi hukmron [Afrig'iylarga](#) xayrixoh edi, 995-yil [Katni](#), Xorazmning ikkinchi poytaxti, Gurganj (Urganch)ning amiri Ma'mun ibn Muhammad bosib oladi va [Afrig'iylar](#) sulolasini taxtdan ag'dardi va natijada Beruniy vatanini tashlab [Buxoroga](#) ketdi. U yerda u [Ibn Sino](#) bilan yozishmalar olib borgan va bu ikki olim o'rtasida fikr almashilgan. U o'zining „Geodeziya“ asarida 990-yil [Kat](#) shahrining geografik kengligini aniqlaganini yozadi. Ma'lumki, geografik kenglikni aniqlash

uchun geografiya, matematika va astronomiyadan yetarlicha bilimga ega bo'lish lozim. [Ray](#) shahriga (hozirgi [Tehron](#) yaqinida) keladi. U [Rayda](#) mashhur olim — matematik va astronom al-Xo'jandiy, tabib va faylasuf [ar-Roziylar](#) bilan tanishadi. Beruniy [Rayda](#) o'zining „Al-Faxriy sekstanti“ risolasini yozadi. 997-yil Beruniy [Katga](#) qaytdi. Bu davrda Xorazmda o'zgarishlar bo'lib, Ma'mun vafot etib, uning o'rniga Ali ibn Ma'mun taxtga chiqqan edi. 997-yilda mashhur tabib [Abu Ali Ibn Sino](#) ham Urganjga keladi. 998-yil Beruniy Jurjonga keldi. U Jurjonda 1004-yilgacha yashaydi. O'zining o'n beshga yaqin asarini shu yerda yaratdi. Jumladan, olimning „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asari 1000-yil atrofida shu yerda yozilgan. 1004-yilning bahorida Beruniy Xorazmga qaytdi. Bu vaqtda Xorazmning poytaxti Urganj edi. Urganjda u Oy tutilishini kuzatdi. Saroyda al-Masihiy, tabib al-Hammar, Ibn Iroq va boshqalar ishlar edilar.

Urganjda Beruniy [matematika](#), [astronomiya](#) bilan bir qatorda [fizika](#) va [mineralogiyaning](#) ba'zi masalalari bilan shug'ullandi. Minerallarni aniqlash, ularni tizimga solishda solishtirma og'irliklardan foydalanish g'oyasi ham mana shu yerda tug'ildi. 1017-yilning yozida turkiy podsho [Mahmud G'aznaviyning](#) buyrug'iga ko'ra Beruniy asir sifatida [G'aznaga](#) olib ketildi. U yerda og'ir sharoitda yashadi. 1019-yildan keyin ilmiy ish bilan shug'ullanish sharoitiga erishdi. 1022–1024-yillarda [Mahmud Hindistonga](#) qilgan yurushida Beruniyni o'zi bilan olib ketdi. Safarda ham Beruniy ilm bilan shug'ullandi. U [Panjobdagi](#) Nandna qal'asi yonida yer shari [meridianini](#) bir gradusining uzunligini o'lchadi va u 110,895 km. ekanini aniqladi. Bu ma'lumot hozirgi zamon o'lchashlari natijasi — 111,1 km bilan taqqoslansa, Beruniy o'lchashlarining aniqligi qay darajada ekani ko'rinadi.

U umrining ko'p qismini hozirgi [Afg'onistonning](#) janubiy-sharqiy qismidagi o'sha paytdagi [G'aznaviylar](#) davlati poytaxti [G'azna](#) shahrida o'tkazdi. [Hindiston yarimoroliga](#) sayohat qilganda, Hindistonda amalda bo'lgan [hinduiylik](#) dinini o'rganib chiqqandan so'ng 1030-yilda „Tarix al-Hind“ (Hindiston tarixi) nomli hind madaniyati haqida risola yozdi. U o'z davri uchun hayratlanarli darajada xolis yozuvchi edi. Turli xalqlarning urf-odatlarini va e'tiqodlarini, uning ilmiy ob'ektivligi 11-asr boshlarida [Hindistonni](#) ajoyib tasvirlagani uchun unga al-Ustad („Ustoz“) unvonini berdi. Beruniy Xorazm tili bilan birga sug'diy, forsiy, suryoniy, Yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o'rgangan. U Yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, [botanika](#), matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiyadan ham chuqur bilim oladi. Beruniy yirik olim Abu Nasr Ibn Iroqdan Yevklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta'limotlaridan dars olgan. Bundan tashqari o'zidan oldin o'tgan matematik, munajjim va geografiya olimi Muhammad Xorazmiy, geografiya olimi Abul Abbos, Ahmad Farg'oniy (IX asr), Marvaziy (IX asr), Javhariy (IX asr), faylasuf va tabiatshunos Abu Nasr Forobiy, Abul

Vafo Juzjoniy (940-998), seyistonlik Abu Said as-Sijiy (951-1024), Abu Muhammad Hamid Xo'jandiy va boshqalarning asarlarini mustaqil o'rganadi. 995 yilgacha Beruniy astronomiya, geografiya, geodeziyaning amaliy masalalarini hal etish bilan birga, SHarqda birinchi bo'lib Yer va Osmon globusini yasadi va astronomiyaga oid bir necha kitob yozdi ("Kartografiya", "Globus yasash kitobi", "Erdagi joylarning uzunlama va kenglamalarini aniqlash haqida maqola" va boshqalar). Beruniy hali juda yosh olim bo'lishiga qaramay, Kot shahrida 994-995 yillarda astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblarni ixtiro etgan. 994-995 yillarda Qoraxoniylar samoniylar davlatiga qarshi hujum qiladilar. Urganch amiri Mahmud I tomonidan Beruniy ijod etayotgan Kot shahri zabt etilib (bu shahar Janubiy Xorazmning poytaxti bo'lgan), yagona Xorazm davlati tashkil topadi. Amir Abu Abdullo Muhammad xizmatida bo'lgan Beruniy ham boshqa olimlar kabi Kot-Qiyotni tark etib, Jurjon (Kaspiy dengizining janubi-sharqi)da, so'ng Rayda (Tehron yaqinida) yashaydi, Raydan yana Jurjonga qaytib, olim va kelajakdagi ustoz Abu Sahl Iso Masihiy bilan tanishadi va undan ta'lim oladi. O'sha davrda Xorazmda va Kaspiy oldi viloyatlarida Qobus ibn Vushmagir yosh olimga xayrixohlik ko'rsatadi. "SHams al-Ma'aliy" ("Oliy martabalar quyoshi") laqabi bilan mashhur bo'lgan bu podshohga bag'ishlab Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini yozadi va unga taqdim etadi. Bu asar Beruniy nomini Yaqin va O'rta SHarqqa mashhur qildi. 1004 yilda Beruniy Mahmud II ibn Mahmud tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va uning yaqin maslahatchisi bo'lib qoladi. Mahmud davrida Urganchda "Mahmud akademiyasi" nomli ilmiy markaz tashkil etiladi va u yerda musulmon SHarqining yirik olimlari faoliyat ko'rsatadi. Beruniy bir necha yil kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida "Mineralogiya" asarini yaratadi. 1017-1018 yillarda yana taxt va hokimiyat uchun kurash boshlanib, Movarounnahrda qoraxoniylar davlati barpo etiladi. Xuroson va Avg'onistonda Mahmud G'aznaviy (998-1030) xukmronligi o'rnatilib, qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Xorazm Mahmud davlatiga tobe bo'lib qoladi. Mahmud akademiyasidagi ko'plab olimlar qatori Beruniy ham G'aznaga olib ketiladi va u yerda ko'p qiyinchiliklar bilan o'z ijodini davom ettiradi. Beruniy bu yerda o'zining "Xorazmning mashhur kishilari", "Tahdid nihoyot al-amokin li tashih masofot al – masokin", ("Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash", yahni "Giodeziya") asarini yaratdi. Bu asarda geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda paleontologik kuzatishlar natijalari ham bayon qilingan. Beruniyning yana bir muhim asari "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar"dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushunchalar, ma'lumotlar bergan. Mahlumki, Mahmud G'aznaviy Hindistonga qarshi bosqinchilik urushlarini olib borgan. Mana shu yurishlarning birida Beruniy ham Mahmud G'aznaviyga hamroh bo'lib bordi. U sanskrit (eski hind tili)ni bilganligi

uchun hind xalqi madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi va bu mehnatlari natijasida 1030 yilda o'zining SHarq va G'arbda keng ehtirol qilingan mashhur "Hindiston" asarini yaratadi. Kitobning to'liq nomi "Kitobu fi taxqiqi molil Hind min maqulatin fil aqli av marzulatin", yahni "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi" bo'lib, aytishga qulay bo'lishligi uchun qisqacha "Tahqiqu mo - mil hind" - ("Hindistonga oid tadqiqatlar" yoki "Hindiston") deb yuritiladi. Uning bu shoh asari G'arb va SHarq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V.R. Rozen "SHarq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q", - deb baholasa, Hindiston olimi Hamid Rizo olim haqida gapirib, "Hind madaniyatining chigal muammolarini biron-bir o'rta asr yoki hozirgi zamon muallifi Abu Rayhon Beruniydek muvaffaqiyatli ravishda tushunib yetmagan. Uning "Hindiston" asari qadimgi Hind madaniyati va fanining klassik namunasi bo'lib qoladi". Asarda Beruniyning Hindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan. O'sha yili (1030) Mahmud G'aznaviy vafot etadi. Uning kichik o'g'li Muhammad voris sifatida taxtga o'tirgan bo'lsa-da, ko'p o'tmay Mahmudning katta o'g'li Mashud (1030-1041) ukasini taxtdan ag'darib, o'zi xokimiyatni qo'lga oladi. Bilimdon va zukko, ilm ahlini qadrllovchi Mashud Beruniy o'z himoyasiga olib, uning ijod qilishiga sharoit yaratib beradi. Beruniy astronomiyaga oid "al - Qonun al-Mashudiy" ("Mashud qonuni") nomli yirik asarini shox Mashudga bag'ishlaydi. Olimlar bu asarni matematika va astronomiyaga oid ungacha yozilgan barcha asarlardan yuqori qo'yadilar. O'sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: "Mashud qonuni" kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o'chirib yuborgan deydi. Beruniy yana "qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami" ("Mineralogiya"), "Dorivor o'simliklar haqida Kitob", "Kitob as Saydona fi - t-tibb" kabi asarlarni ham yozdi. "Mineralogiya" SHarqdagina emas, Yevropada ham qimmatbaho toshlarni izlash usullari va ular bilan savdo qilish, konlarni o'rganish, yer osti boyliklarini tekshirish haqida ma'lumot bersa, "Saidona" nomi bilan mashhur bo'lgan keyingi asarda SHarqdagi dorivor o'simliklarning tavsifi bayon qilingan.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytish mumkinki, Beruniyning borliq jamiyat haqidagi qarashlarida insonning qiyofasi tabiat ta'sirining natijasi ekani, uning ichki qiyofasida cheksiz sa'y-harakatlar natijasida tub o'zgarishlar bo'lishi mumkinligi aytiladi. Har bir inson o'z xulq-atvorining egasidir. Jamiyat bosqichma-bosqich o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Beruniyning jamiyatda adolatli bo'lish, inson uchun qayg'urish, jamiyatni aql, ilm, adolat, qonunlar, o'rnatilgan tartiblar bilan boshqarish kerakligi haqidagi falsafiy tahlili o'sha davrda fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanganidan dalolat beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom. / Tarjimon A.Rasulov. Izohlarni I.Abdullayev va A.Rasulov tuzgan. Mas'ul muharrirlar: I.Abdullayev va O.Fayzullayev. –T.: Fan, 2000
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Tom Hindiston. Arabchadan A.Rasulov, Yu.Hakimjonov, G'.Jalolov tarjimasi. So'z boshi va izohlar A.Irisov. – T.: Fan, 1998.
3. Buyuk siymolar, allomalar: (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). K.1. – /Nashrga tayyorlovchi M.M.Xayrullayev. – T.: Ma'naviyat, 2004 .
4. Abu Rayhon Beruniy. “Kitob al-jamohir fi-ma'rifat al-javohir” (Mineralogiya). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
5. I.M.Muminov. O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar (IX-XX asrning boshlarigacha). – T.: Fan, 2002 .